



RAQAMLI AKTIVLAR VA NFT BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI

Voxidov Muxtorjon Abdixalil o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi
Elektron pochta: muhtorjonvohidov9@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19366339>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 31- mart 2026 yil

KEY WORDS

raqamli aktiv, NFT, blokcheyn,
kiberjinoyat, kvalifikatsiya,
nomoddiy mulk, JK 278^b-modda.

ABSTRACT

Maqolada raqamli aktivlar, xususan kriptovalyutalar va NFTlar bilan bog'liq jinoyatlarni jinoiy-huquqiy kvalifikatsiya qilish muammolari tahlil qilinadi. Raqamli aktivlarning huquqiy tabiati, ularni mulkka qarshi jinoyatlar predmeti sifatida baholash masalalari hamda xalqaro standartlar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida an'anaviy mulkiy munosabatlar tobora virtual makonga ko'chib bormoqda hamda raqamli aktivlar, xususan kriptovalyutalar va NFTlar mustaqil huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar sifatida shakllanmoqda. Raqamli aktivlar o'zining anonimligi, transchegaraviyligi hamda jismoniy tashuvchiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lishi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, mazkur xususiyatlar ularning jinoiy faoliyatda qo'llanilishiga ham keng imkoniyat yaratmoqda. Xususan, firibgarlik, o'g'rilik, noqonuniy o'zlashtirish hamda boshqa kiberjinoyatlar doirasida raqamli aktivlardan foydalanish holatlari ortib bormoqda.

Biroq amaldagi jinoyat qonunchiligida raqamli aktivlar va NFTlarning huquqiy maqomi yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi sababli, ular bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda muayyan nazariy va amaliy muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, bunday obyektlarni mulk sifatida baholash, jinoyat predmeti sifatida e'tirof etish hamda tegishli jinoyat tarkiblariga to'g'ri tatbiq etish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Kriptoaktivlar tarixiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu sohaning ildizlari 1989-yilda Devid Chaum tomonidan yaratilgan raqamli to'lov tizimlariga borib taqaladi. Keyinchalik, 1998-yilda Vey Day ("b-money") va Nik Sabo ("Bit Gold") tomonidan markazlashmagan iqtisodiy tizim konsepsiyalari ilgari surildi. Ushbu g'oyalar zamonaviy blokcheyn texnologiyasi hamda "ish isboti" (Proof-of-Work) mexanizmining shakllanishiga asos bo'ldi¹.

Sohadagi muhim burilish nuqtasi esa 2008-yilda Satoshi Nakamoto tomonidan Bitcoin texnologiyasining taqdim etilishi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, global moliyaviy inqiroz fonida paydo bo'lgan ushbu tizim an'anaviy moliyaviy institutlarga muqobil sifatida e'tibor qozondi.

¹ History of Cryptocurrency // Telco Support Center. – URL: <https://www.telco.in/en/support-center/cryptocurrency-basics/history-of-cryptocurrency>

2015-yilda “aqli shartnomalar” konsepsiyasiga asoslangan Ethereum platformasining yaratilishi esa blokcheyn texnologiyasi imkoniyatlarini yanada kengaytirib, uning qo'llanish doirasini sezilarli darajada oshirdi.

Bugungi kunda raqamli aktivlar tushunchasi nafaqat kriptovalyutalarni, balki barqaror qiymatga ega aktivlar (stablecoinlar) va noyob raqamli obyektlar (NFT)ni ham o'z ichiga oladi. Markaziy nazoratdan holi ushbu tizim, ayniqsa, 2017-yildagi keskin narx o'sishidan so'ng, global miqyosda yuqori daromadli investitsiya vositasi sifatida keng tanildi².

So'nggi yillarda NFTlar va boshqa raqamli aktivlarning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, ushbu soha bilan bog'liq xavf va tahdidlar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, NFTlar raqamli san'atda innovatsiya yaratish bilan birga, jinoiy daromadlarni legallashtirish uchun ham keng imkoniyatlar ochdi. Ushbu aktivlarning yuqori o'zgaruvchanligi va anonimligi jinoyatchilar tomonidan aktiv qiymatini sun'iy oshirish hamda “wash trading” kabi soxta bitimlar orqali noqonuniy foyda olishga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda sohadagi huquqiy noaniqliklar va foydalanuvchilarning yetarli tajribaga ega emasligi turli ko'rinishdagi firibgarliklarning ko'payishiga asosiy sabab bo'lmoqda. NFT bozorida keng tarqalgan firibgarlik sxemalari qatoriga fishing hujumlari va soxta platformalar orqali foydalanuvchilarning maxfiy kalitlarini o'g'irlash, shuningdek, “pump and dump” usulida narxlarni manipulyatsiya qilish holatlarini kiritish mumkin.

Shu bilan birga, o'zganing intellektual mulkidan noqonuniy foydalanish orqali qalbaki NFTlarni muomalaga chiqarish hamda yirik sarmoya jalb qilingandan so'ng loyihani to'xtatib, mablag'lar bilan g'oyib bo'lish kabi holatlar ham tez-tez uchramoqda. Umuman olganda, bozordagi anonimlik va huquqiy bo'shliqlar tizimli jinoyatlar sodir etilishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sohani huquqiy tartibga solish va tegishli jinoiy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini taqozo etadi³.

Yuqorida qayd etilgan muammolar raqamli aktivlar sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini yanada kuchaytirdi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2024-yilda kiritilgan o'zgarishlar (xususan, JK 278⁸-moddasi) raqamli aktivlar aylanmasi sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda muhim qadam bo'ldi.

Shunga qaramay, amaliyotda raqamli aktivlarni “axborot resursi” yoki “nomoddiy mulk” sifatida tavsiflash borasidagi ilmiy bahslar saqlanib qolmoqda. Raqamli aktivlarning huquqiy maqomini aniq belgilash hamda ularni musodara qilish mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi ushbu masalani maxsus jinoiy-huquqiy tadqiqotlar doirasida chuqur o'rganishni talab etadi⁴.

Raqamli aktivlarning huquqiy maqomini aniqlashdagi ushbu noaniqliklar ayniqsa NFTlar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, NFTlarning (o'zgarmas tokenlar) o'ziga xos “ikkiyoqlama” tabiati, ya'ni bir tomondan huquqni mustahkamlovchi raqamli sertifikat, ikkinchi tomondan esa yuqori likvidli aktiv ekanligi ularni g'ayriqonuniy egallashga qaratilgan harakatlarni axborot xavfsizligiga qarshi jinoyatlar hamda mulkka qarshi jinoyatlar (JK 168, 169-moddalari) majmui bilan malakalash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

² The History of Digital Assets // CFTE Blog. – URL: <https://blog.cfte.education/the-history-of-digital-assets/>

³ Common Cryptocurrency Scams and How to Avoid Them // Kaspersky Resource Center. – URL: <https://www.kaspersky.ru/resource-center/definitions/cryptocurrency-scams>

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-6763724>

Xalqaro standartlar, xususan FATFning 15-tavsiyasi hamda MiCA reglamenti raqamli aktivlarni jinoiy-huquqiy muhofaza qilishda ularni “axborot” sifatida emas, balki “mulk” (nomoddiy aktiv) sifatida talqin qilish zarurligini ko’rsatadi⁵.

I.N. Mosechkin⁶, A.A. Korennaya⁷ va N.V. Tidikova⁸ kabi tadqiqotchilar raqamli aktivlarning nomoddiy tabiatiga qaramay, ularni o’g’irlashni mulkiy jinoyat sifatida baholash lozimligini ta’kidlaydilar. Olimlarning fikricha, iqtisodiy qiymatga ega har qanday obyekt qonun himoyasida bo’lishi shart.

Darhaqiqat, bugungi kunda NFT va boshqa virtual aktivlarning “qora bozor”da hamda ixtisoslashgan platformalarda real pul mablag’lariga sotilishi ularning aniq bozor qiymatiga ega ekanligini ko’rsatadi. Bu holat esa mazkur aktivlarni Jinoyat kodeksining 169-moddasida nazarda tutilgan “o’zganing mulki” tushunchasi doirasida e’tirof etish uchun yetarli asos bo’lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, yuqorida qayd etilgan olimlarning xulosalari NFT va boshqa raqamli aktivlarning zamonaviy iqtisodiy mohiyatini to’liq aks ettiradi. Bizning fikrimizcha, ushbu aktivlarni “o’zganing mulki” sifatida talqin qilish huquqiy mantiqqa to’la mos keladi, chunki ular real iqtisodiy qiymatga hamda ayirboshlash xususiyatiga ega.

Aks holda, mulk tushunchasini faqat moddiy ashyolar bilan cheklash raqamli iqtisodiyot sharoitida mulkiy huquqlarni himoya qilishda jiddiy huquqiy bo’shliqlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Yuqoridagi yondashuvdan kelib chiqib, raqamli aktivlarga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni to’g’ri kvalifikatsiya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston qonunchiligida o’g’rilik an’anaviy ravishda moddiy ashyolarga nisbatan tushunilsada, raqamli aktivning o’g’irlanishi uning egasi uchun real iqtisodiy zarar keltiradi. Shu sababli, bunday qilmishni shunchaki “axborotga oid jinoyat” sifatida emas, balki mulkka qarshi tajovuz hamda kiberjinoyat elementlarini o’zida mujassam etgan murakkab huquqbuzarlik sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikda pora nafaqat moddiy buyum, balki “mulkiy manfaat” shaklida ham ifodalanishi mumkinligi inobatga olinadigan bo’lsa, raqamli aktivlarni korrupsiyaviy jinoyatlar predmeti sifatida ham tan olish zarurati yuzaga keladi. Bu esa korrupsiyaning yangi va yashirin shakllariga, shuningdek, jinoiy daromadlarni legallashtirish holatlariga qarshi samarali kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistika ma’lumotlari tahlili kripto-aktivlar bilan bog’liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda tergov organlari va sudlar o’rtasida jiddiy huquqiy

⁵ Regulation (EU) 2023/1114 on markets in crypto-assets (MiCA).

⁶ Мосечкин И. Системные Проблемы Уголовно-Правовой Защиты Виртуальных Объектов // Lawl Journathe High. Sch. Econ. 2024. Т. 17. № 4. С. 185–209

⁷ Коренная А.А., Тыдыкова Н.В. Криптовалюта как предмет и средство совершения преступлений // Всероссийский криминологический журнал. 2019. Т. 13. № 3. С. 408–415

⁸ Коренная А.А., Тыдыкова Н.В. Криптовалюта как предмет и средство совершения преступлений // Всероссийский криминологический журнал. 2019. Т. 13. № 3. С. 408–415

tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2024-yil davomida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 13 nafar shaxsga nisbatan 6 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. Mazkur ishlarning birida sudlanuvchi dastlab JKning 169-moddasi (O'g'rilik) va 243-moddasi (Legallashtirish) bilan ayblangan bo'lsa-da, sud muhokamasi davomida ushbu moddalar bo'yicha oqlov chiqarilib, qilmish JKning 278⁸-moddasi 2-qismi "a" bandiga qayta kvalifikatsiya qilingan⁹.

Ushbu tendensiya 2025-yilda ham davom etgan. Yilning dastlabki 5 oyi davomida ko'rilgan 39 ta jinoyat ishidan 6 tasida JKning 243-moddasi bo'yicha oqlov berilib, ayblanuvchilar faqat JK 278⁸-moddasi bilan jazolangan¹⁰. Keltirilgan statistik ma'lumotlar tergov organlari tomonidan ayrim hollarda qilmishni og'irlashtiruvchi yondashuv asosida noto'g'ri kvalifikatsiya qilish holatlari mavjudligini ko'rsatadi. Sud amaliyotida esa, aksincha, qonuniylik hamda "shaxsning holatini og'irlashtirmaslik" prinsiplari ustuvor ahamiyat kasb etib, kriptoaktivlar bilan bog'liq har qanday noqonuniy aylanma avtomatik ravishda "legallashtirish" (JK 243-moddasi) sifatida emas, balki "aylanma tartibini buzish" (JK 278⁸-moddasi) sifatida baholanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli aktivlar blokcheyn texnologiyasiga asoslangan "nomoddiy mulk" yoki "mulkiy huquq" obyektini hisoblanadi. Ularning iqtisodiy qiymatga egaligi esa ularni o'g'rilik (JK 169-moddasi) va firibgarlik (JK 168-moddasi) jinoyatlarining predmeti sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, NFTlarni g'ayriqonuniy egallash holatlarini ham axborot xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, ham mulkka qarshi jinoyatlar majmui sifatida kvalifikatsiya qilish zarurligi asoslab berildi. Amaliyotda esa raqamli aktivlarning jinoiy manbasi isbotlanmagan hollarda qilmishni JKning 278⁸-moddasiga qayta kvalifikatsiya qilish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Biroq, "mulkiy jinoyat" va "tartibga solishga oid jinoyat" o'rtasidagi chegaraning huquqiy doktrinada aniq belgilab berilmaganligi mazkur sohada yagona yondashuvni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, raqamli aktivlar bozoridagi narxlarning keskin tebranish xususiyatini inobatga olgan holda, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni aniqlashda yagona yondashuvni shakllantirish zarur. Xususan, zararni baholashda aynan jinoyat sodir etilgan kundagi bozor qiymatini asosiy mezon sifatida belgilovchi yagona metodologiyani joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, raqamli aktivlar aylanmasini jinoiy-huquqiy tartibga solishda an'anaviy yondashuvlar tobora o'z samaradorligini yo'qotmoqda. Asosiy muammo raqamli aktivlarning ash-yoviy ko'rinishga ega emasligida emas, balki ularning huquqiy maqomi milliy qonunchilikda hali to'liq "mulk" sifatida e'tirof etilmaganligidadir.

Xalqaro tajribani, xususan Yevropa Ittifoqining MiCA reglamenti va AQSH sud amaliyotini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, raqamli aktivlarni jinoiy-huquqiy himoya qilishda ularni "nomoddiy aktiv" yoki "mulkiy huquq" sifatida talqin qilish eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Aynan shunday tasniflash jabrlanuvchilarning huquqlarini to'laqonli himoya qilish hamda kripto-aktivlarga qarshi qaratilgan tajovuzlarni adolatli kvalifikatsiya qilish imkonini beradi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil yakunlari bo'yicha statistik hisoboti. – URL:

<https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil birinchi yarim yilligi bo'yicha statistik hisoboti. – URL:

<https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278⁸-moddasi kripto-aktivlar aylanmasi tartibini buzganlik uchun javobgarlikni belgilasa-da, u raqamli aktivlarni bevosita talon-toroj qilish (o'g'rilik, firibgarlik) bilan bog'liq munosabatlarni to'liq qamrab olmaydi. Natijada, amaliyotda qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda blanket normalarga tayanish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu esa yagona huquqiy yondashuvni shakllantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-121-sonli Farmoni (tahriri bilan) kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi vakolatli organ sifatida Istiqbolli loyihalar milliy agentligini (ILMA) belgiladi. Mazkur normativ hujjatga asosan, xizmatlar provayderlari faoliyati faqat rezident yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilishi qat'iy belgilangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, JKning 278⁸-moddasi va unga havola qilinuvchi qonunchilik hujjatlari ko'proq sohaning ma'muriy-huquqiy tartibini hamda yuridik shaxslarning faoliyat mexanizmlarini himoya qilishga yo'naltirilgan. Biroq, kripto-aktivlar bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lgan jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlari, ayniqsa NFT va boshqa raqamli aktivlar o'g'irlangan yoki firibgarlik yo'li bilan o'zlashtirilgan holatlarda, mazkur modda doirasida to'laqonli himoya qilinmaydi.

Shu sababli, kiberjinoyatchilik sharoitida jismoniy shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan jinoiy-huquqiy normalarni takomillashtirish zarur. Amaliyotda JK 278⁸-moddasini faqat ma'muriy tartibni buzish sifatida emas, balki jismoniy shaxslarga yetkazilgan katta miqdordagi zarar uchun og'irlashtiruvchi bandlar bilan to'ldirish, yoki uni mulkiy jinoyatlar (JK 168 va 169-moddalar) bilan birgalikda kvalifikatsiya qilish mezonlarini ishlab chiqish muhimdir.

Hozirgi kunda JK 278⁸-moddasi faqat blanket (havalaki) xarakterga ega bo'lib, kripto-aktivlar aylanmasi tartibini buzganlik uchun sanksiyalarni belgilaydi. Biroq, moddada yetkazilgan zarar miqdori (ancha, ko'p, juda ko'p) bo'yicha tasniflovchi, ya'ni kvalifikatsiyani og'irlashtiruvchi belgilar mavjud emas. Shu sababli, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida, zarar miqdoriga qarab javobgarlikni tabaqalashtiruvchi qismlarni kiritish lozim. Bu orqali "tartibni buzish" va "mulkka zarar yetkazish" o'rtasidagi chegara aniq belgilanadi. Tergov va sud amaliyotida moddalarning bir-birini inkor etishi (kolliziya) holatlarini oldini olish maqsadida aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali kripto-aktivlarni qo'lga kiritish holatlari JK 168-moddasi (firibgarlik) bilan malakalanishi lozim, chunki tajovuz obyektini bevosita o'zganing mulkiy manfaatidir. Shu bilan birga, litsenziyasiz yoki ruxsatnomasiz faoliyat, masalan noqonuniy mayning yoki kripto-aktivlarning noqonuniy aylanmasi, JK 278⁸-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur. Boshqa jinoyatlar, masalan pora olish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosi yoki o'g'rilik natijasida qo'lga kiritilgan kripto-aktivlarning manbasini yashirish va ularga qonuniy tus berish esa JK 243-moddasi (legallashtirish) bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishi shart.

Shu munosabat bilan Jinoyat kodeksining VIII bo'limidagi "Mulk" tushunchasiga raqamli aktivlar va nomoddiy mulkiy huquqlarni kiritish lozim. Bu esa raqamli hamyonlardan aktivlarni yashirincha o'tkazib olish (kripto-o'g'rilik) holatlarini to'g'ridan-to'g'ri JK 169-moddasi bilan malakalash imkonini yaratadi. Xalqaro huquqiy modellarni milliy sharoitga moslashtirish maqsadida, jinoyat qonunchiligiga sof "raqamli" xarakterga ega bo'lgan yangi tarkiblarni

kiritish zarur. Xususan, bozorni sun'iy manipulyatsiya qilish, insayderlik savdosi va begona kompyuter resurslaridan yashirincha foydalanish (kriptomayning) kabi ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun alohida moddalar yoki amaldagi moddalarga og'irlashtiruvchi bandlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Raqamli aktivlarning o'zgaruvchan tabiatini inobatga olgan holda, yetkazilgan zararni hisoblash metodikasi aniq belgilanishi kerak. Bu zararni jinoyat sodir etilgan kundagi bozor qiymati bilan bog'lash orqali subyektiv yondashuvlarning oldini olish va jazo adolatligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasining tezligini hisobga olib, Jinoyat-protsessual kodeksida shubhali kriptoaktivlarni 24–48 soat ichida tezkor muzlatish mexanizmini mustahkamlash zarur, chunki an'anaviy usullar bilan haftalab so'rov yuborish jinoyat ashyolarining qaytarib bo'lmas darajada yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot doirasida ilgari surilgan ilmiy-amaliy takliflarning qonunchilikka tatbiq etilishi fuqarolarning raqamli aktivlarga bo'lgan mulkiy huquqlarini himoya qilish samaradorligini yangi bosqichga ko'taradi. Shu bilan birga, mazkur islohotlar O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot sohasidagi jinoiy-huquqiy siyosatini xalqaro standartlar va zamonaviy talablar darajasiga olib chiqishga, milliy yurisdiksiyamizning investitsiyaviy jozibadorligi va huquqiy ishonchliligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2024-yil 19-yanvardagi O'RQ-901-sonli Qonun bilan kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
- 2.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
- 3.FATF (Financial Action Task Force) Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers (2021).
- 4.Regulation (EU) 2023/1114 on markets in crypto-assets (MiCA).
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3832-son qarori.